

INTERFAOL METODLAR, ULARNING MOHIYATI VA QO`LLANILISHI

Usmonova Bahora Komiljon qizi, assistent,
Saidov Temur Amirqul o`g`li, talaba
Jizzax politexnika instituti, E va AMM kafedrası

Annotatsiya: Ushbu maqola interfaol metodlarning ta`lim va tarbiya jarayonidagi o`rni va imkoniyatlari haqida so`z yuritiladi. Ta`lim jarayonida o`quvchi (talaba)lar hamda o`qituvchi o`rtasidagi faollikni oshirish orqali o`quvchilarning bilimlarni o`zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo`llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta`limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o`tkazish, o`quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma`ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko`pligi, o`quvchilar tashabbus ko`rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, sinf jamoasi bo`lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo`lib, ular ta`lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o`ziga xos ahamiyatga ega.

Kalit so`zlar: *interfaol ta`lim, ta`lim metodlari, interfaol ta`lim usuli, interfaol ta`lim tenologiyasi, interfaol ta`lim va tarbiya, tashkiliy-pedagogik omillar.*

Аннотация: В данной статье говорится о роли и возможностях интерактивных методов в процессе обучения и воспитания. Повышая активность между обучающимися и преподавателем в ходе учебного процесса, он служит активизации обучения обучающихся и развитию их личностных качеств. Использование интерактивных методов способствует повышению эффективности урока. Основными критериями интерактивного образования являются: проведение неформальных дискуссий, возможность свободно описывать и излагать учебный материал, количество лекций невелико, но количество семинаров велико, создание возможностей для проявления

инициативы обучающимися, небольшое оно. состоит в даче заданий для работы в группе, классном коллективе, выполнении письменных работ и других приемов, имеющих особое значение в повышении эффективности воспитательной работы.

Ключевые слова: *интерактивное образование, методы обучения, интерактивный метод обучения, интерактивная образовательная технология, интерактивное образование и обучение, организационно-педагогические факторы.*

Annotation: This article talks about the role and possibilities of interactive methods in the process of education and training. By increasing the activity between students and develop their personal qualities. The use of interactive methods helps to increase the effectiveness of the lesson. The main criteria of interactive education: conducting informal debates, the opportunity to freely describe and express the educational material, the number of lectures is small, but the number of seminars is large, the creation of opportunities for students to take initiative, small group, class team assignment, written work and other methods, which are of special importance in increasing the effectiveness of educational work.

Key words: *interactive education, educational methods, interactive educational method, interactive educational technology, interactive education and training, organizational and pedagogical factors.*

Ma`lumki, bugungi kunda darslarni interfaol metodlarsiz tasavvur qilish mushkul. Negaki hozirgi ta`lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan kunga kuchayib bormoqda.

Zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o`quvchilarga yetkazib berish asosida ma`lum faoliyat ko`nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatni nazorat qilish, ular tomonidan egallagan nazariy va amaliy bilimlar darajasini

baholash o`qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta`lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi [2; 44-b].

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o`quvchilarning o`quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo`llashga doir kata tajriba to`plangan bo`lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Bu kabi metodlar o`z mohiyatiga ko`ra ta`lim oluvchilarga o`quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o`rganilayotgan mavzu, muammolar bo`yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o`z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g`oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag`batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi [1; 4-b.].

Ta`lim va tajriba jarayonida o`qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o`rinli, maqsadli, samarali qo`llanilishi ta`lim oluvchi (o`quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g`oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog`liklikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.


Zamonaviy sharoitda ta`lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo`li- bu mashg`ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo`sh interfaol metodlarning o`zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Quyida ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi. Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to`g`ri qadam tayanch tushuncha- “interfaol” atamasining lug`aviy ma`nosi bilan tanishishdir.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “интерактив”) ifodalanib, lug`viy nuqtai nazardan “inter” – o`zaro, ikki taraflama, “act” – harakat qilmoq, ish ko`rmoq kabi ma`nolarni anglatadi.

“Interfaol ta`lim”- ta`lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko`nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o`zlashtirish yo`lida birgalikda, hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta`lim [3; 205-b.].

“Bilaman. Bilishni istayman. Bilib oldim”(BBB) metodi.

Metod o`quvchi (talaba)larga muayyan mavzular bo`yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo`llashda o`quvchi (talaba)lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg`ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi. Guruhlar faoliyati quyidagi ko`rinishda tashkil etilishi mumkin:



O`quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog`ozida o`z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman

Bilishni istayman

Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya`ni:


O`quvchilarni o`rganishi rejalashtirilayotgan mavzu bo`yicha tushunchalarga egalik darajasi aniqlanadi

O`quvchilarni mavzu bo`yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo`lgan ehtiyojlari o`rganiladi


O`quvchilar mavzuga oid ma`lumotlar bilan batafsil boyitiladi

“SWOT-TAHLIL” metodi

Metod muammoning asosiy to`rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. O`quvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o`rganish orqali mohiyatini oritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi. U yordamida muammoning quyidagi to`rt jhati tahlil qilinadi:



Mashg`ulotlarda texnologiyalarni qo`llash tartibi quyidagicha:



Guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadi

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhdan 1 nafar vakil guruh ishi bilan jamoani tanishtiradi

Guruhlarning ishlari o`qituvchi va jamoa tomonidan muhokama qilinadi

O`qituvchi jamoaning fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni e`lon qiladi

Izoh: texnologiyani qo`llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o`qituvchi texnologiyaning asosiy mohiyati yoki

O`qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg`ulotni yakunlaydi

biror bosqichini o`quvchining yoshiga moslab, unga tushunarli so`zlar bilan ifodalashi (o`zgartirishi) mumkin. O`qituvchi tomonidan o`quvchi (talaba)larga texnologiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma`lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to`la tushunilishini ta`minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

“T-JADVAL” metodi

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o`zaro solishtirish, qiyoslash asosida o`rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko`ra batafsil yoritish maqsadida qo`llaniladi. Ko`p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha xolatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo`llaniladi [1; 68-69 b].

Mashg`ulotlarda “T-jadval” metodidan foydalanish uchun o`quvchi (talaba)larning e`tiboriga quyidagi sxema taqdim etiladi:

O`rganilayotgan masala (g`oya,omil)

T/r	Afzalligi	Kamchiligi
1		
2		
3		

“FSMU” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o`quvchi (talaba)larga o`rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash, baxslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi [1; 70-b.]. O`quvchi (talaba)larga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

T/r	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1	Ta`lim metodlari				
2	Ta`lim vositalari				
3	Ta`limni tashxis qilish				

Izoh: shartli belgilar quyidagi mazmuni anglatadi:

(F)- fikringizni bayon eting;

(S)-fikringizni asoslovchi biron sababni ko`rsating;

(M)-ko`rsatilgan sababni asosli ekanini isbotlovchi misol keltiring;

(U)- fikringizni umumlashtiring;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Ro`ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. //Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi//metodik qo`llanma. Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013 yil.
2. X.A.Aynaqulov. Pedagogikada interfaol metodlarning o`rni// “Экономика и социум” №12(103)-1 2022б 44-46 б,

3. O`Q.Tolipov, M. Usmonboyeva // Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.- Toshkent: “Fan”, 2005, 205-b.
4. <https://cybrleninka.ru>
5. <https://e-library.namdu.uz>

